

## GEOGRAFIYA FANINING TARAQQIYOT BOSQICHLARI

**Aliqulova Munisa Ro'zimurodovna**

*Navoiy viloyati Nurota tumani*

*33- umumiy o'rta ta'lim maktabi*

*Geografiya fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada geografiya fanining taraqqiyot bosqichlari ilmiy bayon etiladi. Ilmiy fikrlar faktlarga asoslanib xulosalanadi.*

**Kalit so'zlar:** *Asar, geografik madaniyat, bob, bo,,lim, fan, tizim, fikr, mulohaza, mamlakatshunoslik.*

Akademik V.P.Maksakovskiy o'zining mumtoz "Geografik madaniyat" (Geograficheskaya kultura) asarining uchinchi bobini "Geografiya fanlar tizimi " deb nomlab, uning 7 bo'limida mazkur fan tizimiga oid o'z fikr mulohazalarini bildirgan. Jumladan,

- Fanning umumiy tarkibi muammolari;
- Tabiiy geografiya;
- Sostial-iqtisodiy (ijtimoiy) geografiya;
- Kartografiya;
- Mamlakatshunoslik;
- Oraliq fanlar;
- Geografiyada ilmiy maktablar.

Geografiya fanlarining tuzilishi to'g'risidagi munozaralar 20-asrning qator o'n yilliklarida avj olganligini akademik V.P.Maksakovskiy ta'kidlaydi.

Hozirgi davrda geografiya o'rniga geografiya fanlari sistemasi iborasini qo'llash ilmiy jihatdan to'g'riroqdir. Rus olimi Ya. G. Mashbist geografiya fanlari tizimiga 88 ta ilmiy yo'nalish kirishini hisoblab chiqqan. O'tgan asrning 70-80 yillaridan boshlab mazkur masalalarga bag'ishlangan ilmiy maqolalar ko'plab chop etilgan, ilmiy anjumanlar o'tkazilgan. Ammo bu sohalarga tegishli muammolar hali o'z yechimini to'liq topgan emas.

Tabiiy geografiya fani mustaqil rivojlanishining to'rt sharti bor bo'lib, 1) predmeti; 2) tadqiqot uslublari; 3) nazariy asoslari; 4) vazifalarining o'ziga xosligi hisoblanadi. Tabiiy geografiyaning yetakchi tamoyillari: komplekslilik (majmualilik, tizimlilik), hududiylik, sababiylik (determinizm), tarixiylik, ekologizm, ko'p funkstiyalilik, xaritashunoslik va boshqalar.

Keyingi yillarda, koinotni o'rganish rivojlanishi bilan selenografiya (Oy geografiyasi), kosmos yershunosligi kabi sohalar ham vujudga keldi. Yer sun'iy yo'ldoshlari va kosmik kemadan turib yer yuzasining suratini olish va xaritasini tuzish usullari ham yaratildi. Ayniqsa, V.P.Semenov Tyanshanskiy (1913) va N.N.Baranskiy

tomondan bildirilgan fikrlar olimlar o'rtasida ko'plab tortishuvlarga sabab bo'ldi. Ammo "Yagona geografiya" g'oyasi tarafdorlari bo'lgan qator tabiiy geograf va ijtimoiy-geograf olimlar geografiyani nufuzini ko'tarish, geografiyani bir butun fan sifatida saqlab qolish to'g'risida qator maqolalar yozishdi, o'z munosabatlarini bildirishdi. Geografiyaning nufuzi to'g'risida geograf olim I.Q.Nazarov quyidagi fikrlarni bildirganlar (2010): "Geografiya fanida esa qator nodir imkoniyatlar mavjud. Ulardan biri, uning majmuali – kompleks mazmundagi fan ekanligi, ya'ni tabiiy va ijtimoiy fanlar qirrasida joylashganligidir. Ikkinchi imkoniyati esa uning insonlarga rizq – ro'z beruvchi makon – hududlarga bag'ishlanganligidir. Uchinchidan, mazkur fanni hududiy ekologik muammolarni echish yo'lidagi imkoniyatlaridir. Shu bois geografik tadqiqotlarning mag`zida falsafiy – dialektik ya'ni tizimli yondoshuv yotishi zarur. Aks holda, geografik tadqiqotlar biryoqlama bo'ladi va uning kundalik amaliyot bilan bog'langanlik darajasi ko'ngildagidek samara bermaydi. Buning uchun geograf falsafiy dunyoqarashga, yuqori saviyadagi sintez qudratiga ega bo'lmog'i zarur. "Geografiya hududlar falsafasi" (Nazarov, 2006) degan hikmatomuz xulosaga kelishimizning mohiyati ham shundadir.

Ushbu muammolarni hal qilish uchun birinchi navbatda geograflarning savodxonlik darajasini yuksaltirish zarur. Buning uchun dastavval geograf kadrlar tayyorlab beradigan oliy geografik ta'limga tegishli o'quv rejalarini takomillashtirish lozim.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Назаров И. Қ. География фанинг асосий муаммолари. Тошкент, —Мухаррир2013. -212 б.
2. Обидов У. Географик билимларнинг ривожланиши (эрамиздан аввалги ва эрамизнинг XX аср бошлари). Фарғона. Жаҳон нашриёт. 2011. – 236 б.
3. Раҳимов И., Ўтамуродов А. Фанларнинг фалсафий масалалари. Т. 2005. – 212 б.